

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI**

**"OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB MASALASI:
TAHLIL, TASNIF, QIYOS"**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALARI**

TOSHKENT – 2022

INTERNET TARMOG'IDA NUTQ USLUBLARINING KO'RINISHI

Boboxonova Feruza (+998972803606)

**BuxDU, O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasи o'qituvchisi,
To'xtayeva Dilnavoz, I kurs talabasi.**

Annotatsiya: Eng universal lisoniy muloqot vositalaridan bo'lmish til va nutq birliklaridan to'g'ri va o'rini foydalanishga intilish madaniylashgan til va nutq haqidagi tushunchalar, ilmiy qarashlarning shakllanishiga sababchidir.

Аннотация: Стремление к правильному и уместному использованию языковых и речевых единиц, являющихся наиболее универсальными средствами языкового общения, является причиной формирования понятий и научных взглядов на культурный язык и речь.

Abstract: Striving for correct and appropriate use of language and speech units, which are the most universal means of linguistic communication, is the reason for the formation of concepts and scientific views about cultured language and speech.

Tayanch so'zlar: leksik-semantik, abbreviatura, global, IMHO, pragmatik, agrammatizm, multimedia, kommunikativ, sotsiotexnik.

Internet - bu hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir. Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Internet tili juda murakkab va serqirradir. Chunki internet tarmoqlarida nutqning barcha uslublariga xos materiallar mavjud.

Internetning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- Ma'lumotlarni topish;
- Elektron pochta xizmati;
- Fayllarni uzatish;
- Muloqot qilish (chat, imo, duo, skype);
- Ma'lumotlarni tarqatish;
- Elektron kutubxonalar;
- Masofadan o'qitish;
- Telemeditsina;
- Electron tijorat;
- Electron ofis.

Hozirgi zamonda internet axborot olish va axborot tarqatish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Global tarmoqning journalist uchun ahamiyati juda kattadir. Birinchidan turli-tuman axborot manbasi aniq va aniq bo'limgan axborot manbaidir.³⁵

Internet saytlari dasturchilar tomonidan mukammal yaratiladi va bunda ko'proq kishilarni shu saytga jalg etish ko'zda tutiladi. Agar sayt oylar, yillar davomida yangilanmasa, unga murojaat qiluvchilar bilan aloqaga chiqilmasa, bu holat saytdan foydalanuvchilar sonining keskin tushirib yuboradi. Undan tashqari, Internet saytlarining aksariyatida matn yozma tarzda beriladi. Og'zaki yoki ovozli matnlarning miqdori global tarmoqlarda yozma matnlarga qaraganda unchalik ham ko'p emas.

Til sohasida kuzatilayotgan global tarmoq hodisalarini aniq ta'riflash uchun, umuman, Internet tili emas, balki internet janrlari tilidan kelib chiqish lozim.

Global tarmoq janrlarini ajratib ko'rsatish til janrlarini sharoitidagi turlar sifatida ta'riflashga asosalanishi va bunda global tarmoq janrlari boshqa muloqot sohalari janrlari kabi ta'riflanishi mumkin.

Global tarmoqda sarlavha oddiy va tushunarli bo'lishi kerak. Agar u grammatik jihatdan qisqa gap shaklida bo'lsa, yana ham yaxshiroq. Maqolaning o'zi esa bir qator xatboshilarga bo'lingan gaplar tizmasidan iborat bo'ladi. Har bir gap bitta fikrni ifodalashi kerak. Keying gaplar esa oldingisini yangi axborot bilan to'ldirib borishi lozim.

Agar global tarmoq vazifalarini til nuqtai nazaridan olib o'rgansak tilga oid bo'lgan vazifalar Internetga ham tegishli ekanini guvohi bo'lamiz.

Masalan, Internetning asosiy vazifasi bu kommunikativlikdir. Global tarmoq kommunikatsiyaning umumiy ma'noda samarali vositasi bo'lib, u hududiy jihatdan bir-biridan olisda bo'lgan insonlarning o'zaro aloqa qilishlari uchun xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda internet tarmog'i til ta'siriga ega vosita ham hisoblanib, uning yordamida ma'lum bir g'oyaviy, tijoriy va siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ishontiriladi, dalil keltiriladi, targ'ib qilinadi. Undan tashqari Internet kognitiv(bilim egallash vositasi), tezarus(bilimlarni to'plash va saqlash), madaniy(yangi global axboriy madaniyatni yoki turli submadaniyatlarni yuzaga keltiruvchi vosita) va estetik("quyi"ma'noda ovunchoq, "yuksak" ma'noda esa badiiy va ijodiy salohiyatni amalga oshirish vositasi) vazifalarni bajaradi.

Internet tilining leksik-semantik darajadagi yana bir hodisa sifatida abbreviaturalar (masalan, Internet tilida aksariyat hollarda IMHO abbreviaturasi qo'llanilib, u "In My Humble Opinion", ya'ni "Mening sodda fikrimga ko'ra" degan ma'noni anglatadi. Twitter ijtimoiy tarmog'ida ayniqsa IMHOni juda ko'plab tarmoq foydalanuvchilarining twitlarida ko'rib guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari Feysbuk ijtimoiy tarmog'ida ham aksariyat kishilarning sahifasida bir necha bor uchratishimiz mumkin. Mazkur abbreviatura, asosan, o'z fikriga qat'iy ishonganlar tomonidan ta'kid ma'nosida qo'llaniladi) hamda akronimlar (Internet tilida keng qo'llaniladigan akronimlardan biri LOL bo'lib, u ham ingliz tilidan kirib kelgan

³⁵ N. Qosimova. Internet jurnalistika asoslari. O'quv qo'llanma. T.2007. – B.95.

“Laughing out loud” ya’ni “Qahqaha otib kulish”dir)ning qo’llanilishini keltirishimiz mumkin. Bu kabi abbreviaturalar ro’yxati global tarmoqda hamda turli nashrlarda bir necha bor e’lon ilingan.

Global tarmoq sintaksisining xarakterli jihagti agrammatizm – matn yozuvchi tomonidan adabiy tilga xos sintaktik yoki punktuatsion normalardan chetlashish) tendensiyasidir. Bu kabi xatoliklar yo tezkorlik nuqtai nazaridan Internet tilida, jumladan, chatlarda so’zlarning butunlay qisqartirilishi yoki boshqa belgilar bilan almashtirilish holatlari ko’paygan. Bu kabi hodisalar, ayniqsa ingliz tilidagi so’zlashuvlarda keng tarqalgan: “for” – “4”, “you” – “u”, “OMG” – “O My God” va boshqalar.

Mamlakatimizdagi Internet foydalanuvchilarining aksariyati chatlarda so’zlashish uchun mobil telefonlaridan foydalanadilar. Bu kabi vositalarda esa, asosan, lotin yozuvi qo’llaniladi. Shu sababdan ham chat so’zlashuvchilari o’zbek va rus tillarida quyidagi qisqartmalarni foydalandilar:

- A.a. – Assalomu alaykum;
- V.a. – Vaalaykum assalom;
- Bn – bilan;
- Ln – lekin;
- Mn – mumkin;
- Chndm – tushundim;
- Tel.q. – qo’ng’iroq qil;
- Kn – keyin;
- Ok – yaxshi, tushunarli.

Lotin yozuvida bir tovushni ifodalovchi, biroq ikki harfdan iborat so’zlarda ikki harfning o’rniga bitta harf qo’llash odad tusiga kirgan. Masalan, “Sh” o’rniga “w” – “wekilli”, “wamol”, “wowilinch”.

Oddiy til vositalari o’rniga smayliklarning qo’llanilishi uning pragmatik uchlik – lokutiv akt (nutqiy ifoda) - illokutiv akt – perllokutiv aktning in’ikosidir. Mazkur smayliklar bevosita ta’sirchanlikni oshirishga, inson hissiyotlarini so’zsiz ifodalashga yordam beradi. Masalan,

- Xursandchilik - 😊
- Xafagarchiliik - ☺
- Ayyorona murojaat - 😃
- Ko’z yosh to’kish - 😞
- Baxtdan o’zini yo’qotish – 😔

Qayg’uga botish - 😒 shular jumlasidan. Mazkur smayliklarning ellikka yaqin turi bo’lib, Internet foydalanuchilari o’z kayfiyatlariga muvofiq kerakli smaylikdan foydalanadilar.

Shunday qilib, hozirgi paytda Internet geografik chegaralarga ega bo’lmagan murakkab sotsiotexnik tizimdan iborat deb hisoblanadi. Bu tizimda axborot katta miqdordagi veb-ma’lumotlar, multimedia, uch o’lchamli tasvirlar va boshqalar ko’rinishida mavjud.

Global kommunikatsiyalar davri hisoblangan bugungi kunda Internetdagi muloqot eng ommabop muloqot turiga aylanmoqda. U o’zida turli-tuman til amaliyotlari, kommunikatsiya uslublari va shakllarini mujassam etadi. Asta-sekin bu muloqot “Signum Temporis” (“Davrimizning belgisi”³⁶)ga aylanmoqda.

Global tarmoq janrlarini birlamchi toifalash uchun global tarmoq mavzularihaqidagi ma’lumotlardan foydalanish mumkin. Chunki har bir mavzuviy guruhga global tarmoq mavjudligi davrida shakllangan janrlar jamlanmasi xizmat ko’rsatadi. Qiyinchilik shundan iboratki, har bir bu kabi jamlama, odatda, ochiqligicha qoladi, uni ustiga, mavzuviy guruhlar o’rtasidagi chegaralar ham taxmin qilish mumkin bo’lganchalik aniq emas. Ayrim janrlardan bir vaqtning bir nechta mavzuviy guruhdafoydlanish mumkin. Bundan tashqari, global tarmoq – faol rivojlanayotgan muloqot sohasi. Shunday ekan, unda muntazam ravishda yangi janrlarning paydo bo’lishi va ayrim eskilarining yo’q bo’lib ketishi tabiiy holat. Shu munosabat bilan global tarmoq janrlarining to’liq ta’rifini berish ancha murakkabdir. Shu boisdan bu yerda keltirlayotgan ro’yxat to’liq va yakuniy deb qabul qilinmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atabekova A.A. lingvisticheskiy dizayn WEB-stranis. – M.: Izd-vo RUDN, 2003.
2. D.M. Teshaboyeva, G.X. Bakiyeva, M.I. Isroil, L.I. Toshmuhamedova, M.CH.Nuritdinova. Medialingvistika va tahrir. III jild. T.:O’zbekiston, 2019.
3. N. Qosimova. Internet jurnalistika asoslari. O’quv qo’llanma. T.2007. – B.95.
4. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/06/130614_latin_talkingpoint/. Qudrat Bobojon o’zbek jurnalistikasi, so`z erkinligi va demokratiya haqida.bbcuzbek.com.

MULOQOT MA’DANIYATI VA TO’G’RI MULOQOT TASHKIL QILISH KO’NIKMASI.

Qurbanova Roza

³⁶ Atabekova A.A. lingvisticheskiy dizayn WEB-stranis. – M.: Izd-vo RUDN, 2003. – B. 181.